

GENDER TENGLIGI-BARQAROR TARAQQIYOTNING OMILI SIFATIDA

Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va

huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligining barqaror taraqqiyotga ta’siri tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Gender tengligi-ijtimoiyadolat va inson huquqlari nuqtai nazaridan, balki mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Bugungi kundagi natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjalari va statistik ma’lumotlar asosida gender tengligining turli jabhalaridagi tasiri katta, albatta. Maqolada gender tengsizlikning mavjud shakllari, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi ijtimoiy rollarning tafovuti, mehnat bozori va ta’lim tizimidagi nomutanosibliklar statistik ma’lumotlar orqali o‘rganiladi. Mening fikrimcha, gender tengligini ta’minalash orqali adolatli jamiyat qurish hamda iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va innovatsion rivojlanish uchun zarur deb o‘ylayman. Global darajada tan olingan haqiqatlaridan biri shuki, gender tengligi faqat ijtimoiyadolatni emas, balki iqtisodiy rivojlanish hamda barqarorlik va taraqqiyotning ham muhim omillaridan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, barqaror taraqqiyot, ijtimoiyadolat, iqtisodiy rivojlanish, ayollarning huquqlari, jinsiy tenglik, siyosiy ishtirok, ijtimoiy barqarorlik, ayol va erkaklarning imkoniyatlari, ta’limda gender tengligi.

Abstract: This article analyzes the impact of gender equality on sustainable development based on a systematic approach. Gender equality is an important factor not only in terms of social justice and human rights, but also for the economic, political and social development of the country. The results to date show that the impact of gender equality in various aspects, based on the current legislative documents and statistical data of the Republic of Uzbekistan, is certainly significant. The article examines the existing forms of gender inequality, the difference in social roles between women and men, and the imbalances in the labor market and education system using statistical data. In my opinion, ensuring gender equality is necessary for building a just society and for economic growth, social stability and innovative development. One of the globally recognized truths is that gender equality is not only an important factor in social justice, but also in economic development, stability and progress.

Keywords: Gender equality, sustainable development, social justice, economic development, women’s rights, gender equality, political participation, social stability, opportunities for women and men, gender equality in education.

Аннотация: В статье анализируется влияние гендерного равенства на устойчивое развитие на основе системного подхода. Гендерное равенство является важным фактором не только с точки зрения социальной справедливости и прав человека, но и для экономического, политического и социального развития страны. Сегодняшние результаты показывают, что Республика Узбекистан достигла значительного прогресса в различных аспектах гендерного равенства, основываясь на действующих законодательных документах и статистических данных. В статье на основе статистических данных рассматриваются существующие формы гендерного неравенства, различия в социальных ролях женщин и мужчин, а также диспропорции на рынке труда и в системе образования. По моему мнению, обеспечение гендерного равенства необходимо для построения справедливого общества, экономического роста, социальной стабильности и инновационного развития. Одна из общепризнанных истин заключается в том, что гендерное равенство является не только ключевым фактором социальной справедливости, но и экономического развития, стабильности и прогресса.

Ключевые слова: Гендерное равенство, устойчивое развитие, социальная справедливость, экономическое развитие, права женщин, гендерное равенство, политическое участие, социальная стабильность, возможности для женщин и мужчин, гендерное равенство в образовании.

Kirish: Dunyo bo‘ylab barqaror taraqqiyotning ta’minlanishi iqtisodiy hamda ijtimoiy va siyosiy jihatlarga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi. Barqaror taraqqiyotning o‘zida tabiiy resurslarni tejash va ularni muhofaza qilish bilan birga, inson huquqlari va jamiyatdagi tenglikni ta’minalash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, gender tengligi global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Gender tengligi-erkaklar va ayollarning shuningdek, boshqa shaxslarning teng huquqlari va imkoniytlarining bo‘lishi, jamiyatda jamlagan imkoniyatlardan to‘liq foydalanish imkonini beradi. Gender tengligi ta’minalangan jamiyatlarda ijtimoiy adolatni ta’minlab, balki iqtisodiy rivojlanishning yanada barqaror vaadolatli shaklini yaratishga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda gender tengligi masalalari faqat rivojlangam mamlakatlarda emas, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham o‘z ahamiyatni yo‘qotmagan. Buning sababi shuki, ko‘plab mamlakatlarda ayollar hali hamon ham erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatlarga ega emas va ularning jamiyatdagi o‘rni cheklab qo‘yilgan. Ayollarni ishga joylashtitish, ta’lim olishi va siyosatga ta’sir o‘tkazishi kabi sohalarda hali ham gender tengsizlari mavjud bo‘lib, bu esa barqaror rivojlanishning oldida turgan to‘silardan biri hisoblanadi. Mening fikrimcha, gender tengligini ta’minalash faqat ayollar uchun emas, balki barcha jamiyat a’zolari uchun manfaatli bo‘ladi. Chunki,

teng huquqli jamiyatda har bir shaxsning imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Gender tengligini ta’minlash faqat inson huquqlarini himoya qilish bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va siyosiy barqarorlikni kuchaytirish yo‘lida muhim qadamdir. Shining uchun, gender tengligi masalalari global taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan va u barqaror rivojlanishni ta’minlashda hal qiluvchi omil sifatida qarab kelinmoqda.

Metod: Ushbu ilmiy maqolada gender tengligining barqaror taraqqiyotga ta’sirini o‘rganish maqsadida kompleks yondashuv qo’llanadi. Tadqiqot metodologiyasi sifatli va miqdoriy usullar birlashtiriladi. Bu yonashuv orqali mavzuning murakkab va ko‘p qirrali mohiyatni chuqur tahlil qilish imkonini beidi, albatta. Tadqiqotda ikkita asosiy bosqicha orqali amalga oshiriladi:

1. Nazariy tahlil bosqichi-mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar, masalan BMT, UNDP, UNICEF va boshqalar tomanidan e’lon qilingan hisobotlar va statistik ma’lumotlar orqali gender tengligi va barqaror taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil etiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining gender siyosatiga oid qonunchilik hujjatlari o‘rganiladi.

2. Empirik tadqiqot bosqichi- so‘ravnomalar va yarim strukturaviy intervular yordamida jamiyatda gender tengligining amaldagi holati va u barqaror taraqqiyotga qanday ta’sir qilayotganini aniqlashga qaratilgan.

Ma’lumotlarni to‘plash usullari:

1. So‘rovnama usuli- tadqiqotda respondentlar orasida so‘rovnama tarqatilib, gender tengligi va barqaror taraqqiyot haqida fikrlar to‘planadi.

2. Intervyular: Tadqiqotchilar, ekspertlar va amaliyotchilar blan chuqur intervular o‘tkazib, gender tengligi va barqaror taraqqiyot masalalaridagi individual fikrlarni to‘playdilar.

3. Kuzatuv usuli-tadqiqotchilar barqaror taraqqiyotning amaliyotlarini kuzatib, gender tengligi siyosatlari qanday amalga oshirilayotganini o‘z ko‘zlar bilan ko‘rib chiqishadi.

Tadqiqotda barqaror taraqqiyot va gender tengligi haqida umumiyliz nazariy tushunchalar asosida yondashuvlar ishlab chiqilgan, albatta. Amartaya Senning “Rivojlanish nazariyasi” va Martha Nussbaumning “Imkoniyatlar yondashuvi” asosida gender tengligi va barqaror taraqqiyotning o‘zaro aloqasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot orqali gender tengligi va barqaror taraqqiyotning o‘zaro aloqasini tushunish bilan birga, gender tengligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan siyosatlarni taklif qilish kutilmoqda. Natijalar jamiyatdagi gender tengligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqarishga yordam beradi deb o‘ylayman.

Natijalar: Tadqiqotning asosiy maqsadi-gender tengligi va barqaror taraqqiyot o‘rtasidagi aloqani aniqlash va ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganish

hisoblanadi. Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar, tahlillar va kuzatishlar asosida quyidagi natijalarga ega bo‘lindi:

Tadqiqotning birinchi asosiy natijasi, gender tengligi ijtimoit va iqtisodiy barqaror taraqqiyotning muhim omili ekanligi hisoblanadi. Ijtimoiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda gender tengligini ta’minalash, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ish o‘rinlari va iqisodiy faoliyatga teng huquqlarini yaratish orqali barqaror taraqqiyotga bevosita ta’sir qiladi. Ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali ularning iqtisodiy faoliyatga faol jalg qilinishi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichini oshiradi.

Tadqiqotning ikkinchi natijasi: gender tengligi va ta’limdagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Mening fikrimcha, ta’lim sohasida gender tengligini ta’minalishi, jamiyatda ilmiy va texnologik taraqqiyotning yuqori darajaga ko‘tarilishiga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’limda tenglikka erishgan jamiyatlarda bilim olish imkoniyatlari oshadi va bu jamiyatlar iqtisodiy jihatdan yanada rivojlanib boradi.

Tadqiqotning uchunchi natijasi: Ijtimoiy jihatdan gender tengligi jamiyatdaadolat va tenglikning poydevoriga aylanmog‘i lozim bo‘ladi. Gender tengligini ta’minalash orqali ijtimoiy salomatlik, jinoyatchilik darjasini va ijtimoiy faollik oshadi. Bu kabi o‘zgarishlar barqaror rivojlanishga bevosita ta’sir qiladi.

Tadqiqotning to‘rtinchchi natijasi: Iqtisodiy o‘sish va gender tengligi. Ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish va ularning iqtisodiy yutuqlari hamda moliyaviy mustqailliklarini oshirish, jamiyatning umumiyligi iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yahshilashga yordam beradi.

Tadqiqotning beshinchchi natijasi: Tavsiya qilingan siyosat va strategiyalar. Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

- 1.Ta’lim va salomatlik sohalarida gender tengligi siyosatlarini kuchaytirish;
2. Iqisodiy imkoniyatlarni kengaytirish;
3. Ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash.

Tadqiqot natjalariga ko‘ra, gender tengligi barqaror taraqqiyotning ajralmasi bir bo‘lagi bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror rivojlanishni ta’minalash uchun zarur hisoblanadi. Gender tengligini ta’minalash orqali,adolatni oshirish, jamiyatning umumiyligi faravonligini va iqtisodiy o‘sishini ham ta’minalaydi, albatta.

Tahlil: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender tengligini nafaqat inson huquqlarining ta’minalishi bo‘lib, u barqaror iqisodiy rivojlanish, ijtimoiyadolat va demokratik jamiyat qurilishi uchun zarur hisoblanadi.

Madaniy va huquqiy omillar tahlili: an‘anaviy tushunchalarga qaraganda, ayolning asosiy roli faqatgina oila va farzand tarbiyasi deb bog‘lanadi. Bu esa ularning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlarida ishtirok qilishini cheklaydi.

Tahlil natjalariga ko‘ra, gender tengligi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda: kambag‘allik past darajada bo‘ladi; sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlari yahshiroq

rivojlangan bo‘ladi; ijtimoiy ziddiyatlar kamroq yuz beradi; ayollarning ijtimoiy faolligi yuqori va bu esa demokratik jarayonlarni kuchaytiradi.

Tahlil natijalariga asoslanib, gender tengligi jamiyatning har tomonlama barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillaridandir. Bu tenglik faqat ayollar uchun emas, balki butun jamiyat uchun gender tengligini ta’minlash yo‘lida huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda chuqur yondashish kerak bo‘ladi.

Gender tengligini faqat huquqiy choralar bilan emas, balki quyidagi yo‘nalishlarda chuqur yondashishni talab qiladi:

1. Talim tizimida genderga oid ongni shakllantirish va yosh avlodni tenglik ruhida tarbiyalash;

2. Ayollarga iqtisodiy mustaqillik beruvchi dasturlani ishlab chiqish va kuchaytirish;

3. Mehnat bozorida teng ish haqi va teng imkoniyatlar prinsipini mustahkamlash;

4. Ommaviy axboro vositalarida gender tengligi targ‘ibotlarini kuchaytirish;

5. Mahalliy va markaziy darajada ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilishidagi ishtirokini kuchaytirish kerak bo‘ladi

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar asosida gender tengligi har tomonlama barqaror taraqqiyotga erishishda muhim strategik omil deb o‘ylayman. Mening fikrimcha, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilgan jamiyatlarda har doim iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy ishtirok va innovatsion rivojlanish darjasini ancha yuqori bo‘ladi deb o‘ylayman. Gender tengligi-inson huquqlarining kafolati bo‘lib, samarali va inklyuziv rivojlanishning asosiy kaliti hamdir. Umuman xulosa qilganda, gender tengligiga erishmasdan turib, to‘laqonli barqaror taraqqiyotga erishish mumkin emas, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gender tengligi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. <https://stat.uz>
2. Mahkamova,M. “Gender tengligi va barqaror taraqqiyot:O‘zbekiston tajribasi”.Ijtimoiy fanlar jurnali,45-52b
3. Azizova,D. “Ayollarning iqisodiy faolligini oshirishda gender yondashuvining roli”(2020)
4. Kabeer, Naila. Gender Mainstreaming in Poverty Eradication and the Millennium Development Research Centre,2003
5. <https://in-academy.uz>